

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA INDIVIDUALIZM

Hasanova Shahinabonu
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti
6-4 Uzb-25 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Rauf Parfi ijodi o'zbek she'riyatida individualizm ruhining eng yorqin namoyonlaridan biridir. Shoirning lirik asarlarida insonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, yolg'izlik va o'zlikni anglash jarayoni chuqur falsafiy ohangda ifodalanadi. Parfi she'riyatida individualizm shaxs erkinligi, tafakkur mustaqilligi va yaratuvchilik g'oyasi bilan uyg'unlashadi. U o'z asarlarida jamiyatdagi rasmiy qoliplarni rad etib, inson qalbining cheksiz imkoniyatlarini madh etadi. Shoir poetik ifoda vositalarini yangicha badiiy-estetik yondashuv bilan boyitgan holda o'zbek she'riyatiga yangi mazmuniy qatlam olib kirdi. Rauf Parfi ijodining falsafiy mohiyati va individualistik ruhini tahlil qilish o'zbek adabiyotining modernizatsiya jarayonlarini chuqur anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Rauf Parfi, individualizm, lirika, falsafiy she'riyat, ichki dunyo, erkinlik, modernizm, o'zlikni anglash.

"Sakina", "Abadiyat qo'shig'i", "Ona Turkiston", "Turkiston ruhi", "Tavba", "Xotirot", "Sabr daraxti" kabi qator she'riy to'plamlari bilan o'zbek kitobxoni qalbiga kirib borgan Rauf Parfi O'zturk taxallusi bilan ijod qildi. Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi Sho'ralisoy qishlog'ida tug'ilgan bo'lajak shoirning sevgani kitob bo'ldi. O'zining ruhdor, o'tli she'riyati bilan shoir erk tushunchasi, Turkiston birligi, haqiqatni himoya qilib jadidlarning haqiqiy davomchisi bo'libgina qolmay, yashab ijod qildi deya ayta olamiz. Shuningdek, shoir she'riyatida lirik qahramonning ruhiy holati bilan birga uning ichki kechinmalarini mahorat bilan ifodalay olganligining guvohi bo'lamiz. Rauf Parfining she'rlari emas, balki hayot tarzi ham hech kimnikiga o'xshamagan edi. Umuman, shoir ijodida ona vatanini ozod ko'rish orzusidagi, turkiy xalqlarni birlikka chaqiruvchi she'rlar bir talay. Masalan, Turkiston, Turon, Vatan, Xalq, Millat deya tilga olingan, cheksiz o'g'riq, ichki nolalar bilan bitilgan she'rlarni o'qish o'quvchi ongida vatanparvarlik hissini uyg'otadi.

Biz – Suma nishoni, Abut-turk qoni,

Biz – o'zbek jahonga qudrat-u ko'rkimiz.

Turk – Sugut makoni Samandar joni

Biz – Turon, Turkiston, biz asli turkmiz.

O‘zligini tanishga, o‘zligini topishga chorlagan shoir hayqirig‘i edi bu o‘tli misralar. R.Parfi Vatan to‘g‘risida juda ko‘p yozdi. U Vatanimizni bir butun, yaxlit, g‘olib, muzaffar, erkin ko‘rishni istardi.

Shoirning muhabbat haqida yozganlari ham raufona, ya'ni hech kimnikiga o‘xshamagan, hech kim kutmagan qiyoslar, hech kim nomini topolmagan tuyg‘ular...

Men sening ko‘zlaringga qarayman

Sen o‘zgalarga.

Kimning ko‘zlaridan izlaysan meni.

Yana bir boshqa misrasida:

Seni topgunga qadar

Qanday yashadim men?

Nahotki yashadim?

Shoir muhabbatni shunday yorqin, yorug‘ ranglarda tasvirlaydi. Shoir iqrori esa favqulodda go‘zal, takrorlanmas.

R.Parfi o‘ziga shoir deb nom qo‘ymaydi, shoirlikni da'vo qilmaydi:

Yo‘q shoir deb qarama atay,

Hukm etmakka shoshilma bir oz,

Men kuyunib sevaman netay?

Men kuyunib so‘zlayman xolos.

R.Parfi hayoti osoyishta, bir xil kechmadi. Hayot uni rosa sinadi, tobladi. Dunyo boyliklariga dunyoning insonlar tomonidan o‘ylab topilgan qoidalariga bo‘ysunmadi. U ruhining odami, ko‘ngil odami bo‘lib yashayverdi.

To‘xta, vijdon qayoqqa ketyapsan?

Qayga qochyapsan bevafo xotin kabi?

Haqqing yo‘q ,bir o‘lim haq xiyonat uchun.

Rauf Parfining ijodi tabiatga oshnoligi bilan boshqalardan ajralib turadi. She'rlaridagi yomg‘ir, shamol, xazon, osmon, kecha, kunduz, quyosh, oy kabilar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shoirning azim Buxoro haqida yozmishlari ham go‘zal:

Bir kun tush ko‘rdim. Tushimda

Buxoroga yurgan emishman.

Yuksak minoralar boshimda,

Oyoqlarim ostida gulshan.

Shoir she'rlarini o'qir ekansiz ruhingiz tozarib borayotganini his qilasz.

Rauf Parfining hali yigit yoshida yozgan, qo'shiqqa aylanib barchamiz xirgoyi qilib yuradigan she'ri:

Balki o'chgan edim yodingdan

Shirin xayolingni buzdimmi?

Laylo, Laylo sening yoningda

Yaproq kabi ko'rdim o'zimni

Shirin xayolingni buzdimmi?

R.Parfi she'rlari to qiyomatga qadar o'qiladigan,o'rganiladigan,ma'naviy oziq beradigan she'rlardir.Rauf Parfi shuningdek, o'zbek adabiyotida yangicha janrlarni olib kira olgan va rivojlantirgan ijodkordir.

U sovet sotsialistik realizm adabiyotimizda hukmron davrda u o'zligini yo'qotmadi. Yozuvchining o'z zamonasi uchun yangilik bo'lgan o'zidan keyingi yosh avlod uchun maktab vazifasini o'taydigan inson ruhiyatini qoliplaydigan, erkni tarannum etishga qaratilgan isyonkor she'rlari buning yorqin dalilidir. U umrining oxiriga qadar o'zligiga sodiq qoldi.

Adabiyotlar:

1. Parfi, R. (1999). Saylanma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Quronov, D. (2005). Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr.
3. Jo'rayev, M. (2012). O'zbek she'riyatida falsafiy tafakkur. Toshkent: Fan.
4. Rasulov, A. (2018). "Rauf Parfi poetikasida zamonaviylik va shaxsiylik." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, №4, 45–52-betlar.
5. Karimov, N. (2020). XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi.